



STAGES OF ESCALATION OF RELATIONS BETWEEN THE ISLAMIC REPUBLIC OF IRAN AND THE KINGDOM OF SAUDI ARABIA

Muhammadyusuf M. Makhkamov

researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic Republic of Iran, Saudi Arabia, Iranian revolution, Shia-Sunni rivalry, political conflicts, Heydar Moslehi, President Rafsanjani.

Received: 15. 09. 23

Accepted: 17. 09. 23

Published: 19. 09. 23

Abstract: Relations between the Kingdom of Saudi Arabia and the Islamic Republic of Iran are not only affecting bilateral relations, but also changing regional political processes. It also led to the tension in their relations. Bilateral relations have caused not only economic and military tensions, but also sectarian tensions between Sunnis and Shiites.

ERON ISLOM RESPUBLIKASI VA SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI MUNOSABATLARINING KESKINLASHUV BOSQICHLARI

Muhammadyusuf M. Mahkamov

tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Eron Islom Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Eron inqilobi, shia-sunniy raqobati, siyosiy nizolar, Haydar Moslehi, Prezident Rafsanjani.

Annotatsiya: Saudiya Arabistoni Qirolligi bilan Eron Islom Respublikasi munosabatlar faqat ikki tomonlama munosabatlarga taʼsir qilibgina qolmasdan mintaqaviy siyosiy jarayonlarni ham oʻzgartirib yubormoqda, avvaliga hamkor boʻlgan AQSh bilan keyinchalik dushmanlik siyosatiga oʻtishi esa nafaqat Saudiya va Eron yaqin sharqdagi AQSh parast mamlakatlar bilan ham munosabatlari keskinlashuviga oliv keldi. Ikki tomonlama munosabatlar nafaqat iqtisodiy harbiy balki mazhablar va sunniylik va shialik oʻrtasida ham keskinlashuvni keltirib chiqardi.

ЭТАПЫ ОБОСТРЕНИЯ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКОЙ ИРАН И КОРОЛЕВСТВОМ САУДОВСКАЯ АРАВИЯ

Мухаммадюсуф М. Махкамов

Исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Исламская Республика Иран, Саудовская Аравия, иранская революция, шиитско-суннитское соперничество, политические конфликты, Гейдар Мослехи, президент Рафсанджани.

Аннотация: Отношения между Королевством Саудовская Аравия и Исламской Республикой Иран не только влияют на двусторонние отношения, но и меняют региональные политические процессы, что также привело к напряжению в их отношениях. Двусторонние отношения вызвали не только экономическую и военную напряженность, но и межконфессиональную напряженность между суннитами и шиитами.

KIRISH

Saudiya Arabistoni Qirolligi bilan Eron Islom Respublikasi aslida sovuq urush holatida bo'lib, u davlatlar tarafdorlarini ikki lagerga bo'linib qolishi bilan qarama qarshiliklar turlli yo'llar bilan olib boriladi. Tarix davomida ikki davlat mintaqada etakchilik uchun kurashda geosiyosiy raqib bo'lib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Muayyan davrda ular AQShning ittifoqchilari bo'lib, bir-birlari bilan nisbatan do'stona munosabatda bo'lishgan. 1969 yilgi Nikson doktrinasiga muvofiq, AQSh Eron va Saudiya Arabistoni o'rtasida ikki mintaqaviy ittifoqchi sifatida konstruktiv munosabatlarni saqlab qolindi va SSSRning yaqin Sharqdagi ta'sirining kengayishiga qarshi turish uchun tayanch bo'ldi. Ular o'rtasidagi raqobat davom etardi, ammo do'stona tarzda edi. Ikkala monarxiya ham Yamandagi fuqarolar urushi paytida monarxistlarni qo'llab-quvvatlashgandi huddi SSSR va Misr respublikachilarini qo'llab quvatlagani kabi. 1970-yillarda, Saudiya armiyasi BAA da'vo qilayotgan fors ko'rfazidagi uchta bahsli orolga tushirilishi bilan, munosabatlar keskinlashdi. Biroq, 1979 yilda Eronda monarxiya ag'darilganidan keyin vaziyat butunlay o'zgardi. 1979 yil Eronda sodir bo'lgan inqilobdan so'ng yangi Islomiy davlatning Saudiya Arabistoniga bo'lgan munosabati mintaqada inqilobiy kayfiyatning tarqalishiga va Eron bilan munosabatlar dushmanlik xususiyatiga ega bo'lishiga olib keldi. Eron AQShning iliq munosabatdagi ittifoqchisi bo'lishni to'xtatdi va Amerikaning va uning mintaqaviy ittifoqchilarining oldindan aytib bo'lmaydigan raqiblari sifatida ko'rila boshlandi.

ASOSIY QISM

Saudiya Arabistoni va Eron Islom Respublikasi o'rtasida raqobat mana o'ttiz yildirki davom etib kelmoqda. Saudiya Arabistoni va EIR o'rtasida yuzaga kelgan mojaroning asl mohiyatini

tushunish uchun tarixga nazar solish kerak., Tehron va Ar-Riyod o'rtasidagi raqobat o'ttiz yildan beri davom etib kelmoqda. ikki davlat munosabatlaridagi kelishmovchilik mohiyatini ochib beradigan yettita muhim sana mavjud.

Inqilobdan keyingi Eronning zaifligidan foydalanib, Iroq 1980 yilda eronliklarga qarshi urush boshladi, unda iroqliklar Saudiya Arabistoni, Bahrayn va Quvayt tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Saudiya Arabistoni rasman betaraflikni e'lon qildi, ammo Iroqqa yordam berish uchun 30 milliard dollarga yaqin moliyaviy mablag' yubordi. 2012 yilda Saudiya Arabistoniga safari chog'ida Eron axborot vaziri Haydar Moslehi valiahd Shahzodadan Iroqni Eron bilan urushda moliyalashtirish faktini tan olishni so'radi. 1982 yilda Eronning haj ziyoratini tashkil etish bo'yicha vakili Saudiya hududidan deportatsiya qilindi, Eron harbiy samolyoti esa Saudiya qurolli kuchlari tomonidan urib tushirildi. 1983 yilda tashqi ishlar vaziri Shahzoda Faysal bin Saud munosabatlarni tartibga solish uchun Tehronga keldi, ammo munosabatlarda iliqlik sezilmadi. O'shandan beri ikki davlat o'rtasida axborot urushi bo'lib kelmoqda, unda Saudiya mamlakatlardagi siyosiy va iqtisodiy ta'siri tufayli ustunlikka ega bo'lib kelmoqda. Ali-Akbar Hashemi-Rafsanjani va Muhammad xatami prezidentligi davrida yangi munosabatlar istiqboli ochildi, bu Eron va Saudiya rasmiylari tomonidan qilingan o'zaro rasmiy va norasmiy tashriflarda namoyon bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Saudiya Arabistoni yadro qurolini sotib olish, Pokistondagi yadroviy ishlanmalarga homiylik qilish va Isroil qurolli kuchlari tomonidan Ozirak reaktorining yo'q qilinishi munosabati bilan Iroqdagi ishlanmalarni moliyalashtirish bo'yicha o'z ambitsiyalarini yumshatgan davrda munosabatlarda biroq iliqlik kuzatildi. Ammo o'sha paytda Eron yadroviy dasturi masalasi hali ham keskinlashmagandi. Siyosiy va iqtisodiy hamkorlikning ushbu yuksalishida Eron ko'rfazda kollektiv xavfsizlik tizimini o'rnatishga urinishlarni qayta boshladi va mintaqaviy bo'lmagan kuchlar mavjudligini cheklash zarurligini ta'kidlab kelmoqda.

Mamlakatlar, shuningdek, Islom olamini umuman zaiflashtirishga urinish sifatida Islomning ikki tarmog'ini ajratishga qaratilgan ommaviy axborot vositalarining kampaniyalarini qoralash to'g'risida bayonotlar berishga shoshildilar. Prezident Rafsanjani (1989-1997) Eron tashqi siyosatdagi agressiv-revolutsion siyosatdan pragmatik kooperativga tubdan o'tishni ko'rsatib, o'ziga dushman yaratishni to'xtatishi kerakligini aytdi. Rafsanjani o'zi Eron iqtisodiyotini liberallashtirish yo'lini belgilab berdi. Buning uchun zarur choralardan biri

Quvaytga bostirib kirgandan keyin Saddam Husaynni qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lgan va AQSh bilan munosabatlarda qarama-qarshilik chizig'ini davom ettirishning bir qismi sifatida AQSh qo'shinlarini Saudiya Arabistonidan quvib chiqarishga chaqirgan radikal siyosatchilar faoliyatini cheklash masalasi ko'tarildi. Bunday siyosatchilar orasida Majlis spikeri Mehdi

Kyarrubi ham bor edi, keyinchalik u Musavi bilan birga "yashil" muxolifat yetakchilaridan biri deb tan olingan.

Fors ko'rfazi va Shimoliy Afrika. 1987 yilda haj paytida Eron ziyoratchilarining Saudiya politsiyasi bilan qonli to'qnashuvidan so'ng diplomatik munosabatlar uzildi va faqat 1991 yilda tiklandi. Fors ko'rfazi monarxiyalarida yangi prezident ag'darilishi kerak bo'lgan tartibsiz rejimlarni emas, balki hamkorlik qilish foydali bo'lgan boy investorlarni ko'rildi. AQShning "ikki tomonlama cheklash" siyosatiga qaramay Iroq va Eronning munosabati, Rafsanjani fors ko'rfaz davlatlari hamkorlik Kengashi mamlakatlarining Eronni idrokini o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi, ayniqsa Fors ko'rfazi urushi paytida Eron Saddam Husaynning harakatlarini qoralagan Ko'rfaz davlatlari tomon burilish bilan neytral pozitsiyani egalladi. Savdo aylanmasi o'sdi, to'g'ridan-to'g'ri aviatashuv tiklandi. 1991 yilda Eron Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni tikladi, 1988 yilda aloqalar qisman tiklandi, Eron fuqarolari yana hajga borishga muvaffaq bo'lishdi. 1992 yilda Eronning Riyoddagi yangi elchisi ikki mamlakatni birlashtirishga harakat qildi. 1998 yilda Iroq ham Erondan shia ziyoratgohlariga ziyoratchilar uchun chegarani ochdi.

Eron islom dinining shia mazhabi markazi ekanligi va Saudiya Arabistoni esa Islom dini markazi sifatida ikki mamlakat o'rtasidagi raqobat nafaqat, siyosiy balki mazhabiy bir qarama-qarshilik sifatida ham e'tirof etish mumkin. 1979-yildan keyin Eron va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi raqobat aynan mazhablar o'rtasidagi bir raqobatga aylanib ketganligini ko'rish mumkin.

Ikki davlatning diniy qarashlari shu qadar farq qiladiki, hattoki, bu ikki davlatning bir dinga mansubligini tushunish qiyin. Saudiya Arabistonida aholi XIV asrda yashagan ilohiyotchi Ibn Taymiyaga borib taqaladigan, XVII asrda Muhammad Abdulvahhob tomonidan asos solingan islom dinning vahhobiylik oqimiga e'tiqod qiladi. Saudiya Arabistoni Podshohigi 1932-yilda suveren va mustaqil davlat sifatida tashkil topgan bo'lsada, Vahhobiylik oqimi bu davlatning diniy ta'limotiga aylanishga muvaffaq bo'ldi. Vahhobiylikka ko'ra, Islom dinining yagona manbasi Qur'on va payg'ambar Muhammad s.a.v. sunnatlari bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, Eron aholisining katta qismi Islom dinining shia mazhabiga e'tiqod qilishadi. Ular payg'ambar Muhammad s.a.v.dan keyin Alini r.a. ilk xalifa sifatida e'tirof etib, qolgan uch ta xalifani hokimiyatga nohaq kelganlikda ayblashadi. 1979-yilda Eron Islom Respublikasi tashkil etilgandan keyin qabul qilingan yangi konstitutsiyada Eron Islom Respublikasiga butun islom olamini himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Bu qoidaning o'zi Eronning Yaqin Sharq mintaqasidagi tashqi siyosatining mohiyatini ko'rsatadi. Eron mintaqadagi boshqa davlatlarning shia aholisidan foydalanib, Yaqin Sharqdagi siyosiy ta'sirini oshirishga qaratilgan faol tashqi siyosat yuritmoqda. Ikki davlatning islom diniga nisbatan turlicha qarashlari turli ziddiyatlarga olib keldi. Bu kabi mojarolar ayniqsa haj ziyorati paytida yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Bugunga

qadar eronlik hojilar namozlarda sunniy imomga iqtido qilishdan bosh tortgan holatlar ham ko'p uchrab turadi. Bu kabi voqealar ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlarni paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan. Har ikki tomonning Saudiya Arabistoni bilan aloqalarga yondashuvi farqlidir. Birinchi guruh AQSH bilan yaqin aloqada bo'lgan Saudiya Arabistonini dushman sifatida ko'radi va haj mavsumida yuqorida ta'kidlangan namoyishlarni yoqlaydi. Mo'tadil konservatorlar esa Saudiya Arabistoni bilan minimal darajada aloqalarni saqlash tarafdorlari hisoblanadi. Biroq, bizga ma'lumki, Eronda radikal konservatorlarning siyosati ustunlik qiladi. Shuningdek, Oyatulloh Humayniy Saudiya Arabistonini boshqa musulmon davlatlarga qarshi Hijoz mintaqasidagi muqaddas joylarni himoya qila olmayapti, degan shiddatli tashviqot olib bordi. Humayniyning Hijoz mintaqasi boshqaruvini saudiyaliklardan olib qo'yish va uning boshqaruvi uchun maxsus qo'mita tuzish taklifi Saudiya Arabistonining sabrini to'ldirdi. Saudiya Arabistoni Eron-Iroq urushi (1980-1988) boshlanishi bilan Eronning faol va *ekspansiyani*stik siyosatiga qarshi o'z pozitsiyasini Iroq tomonida turib ko'rsatdi. Saudiya Arabistonining Iroq tomonida bo'lishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishiga olib keldi. Natijada, Saudiya Arabistoni tashabbusi bilan 1981-yilda Eronning ko'rfazdagi ta'siri ortishiga to'sqinlik qilish uchun Ko'rfazi hamkorlik kengashi tashkil etildi. Shu tariqa u ko'rfazdagi kichik davlatlarining Eron siyosiy ta'siriga tushib qolishi va o'zi uchun mintaqada xavfsizlik xalqasini tashkil qildi. Saudiya Arabistonining bu harakatlari mintaqadagi shia aholisi ko'pchilikni tashkil etadigan Yaman, Bahrain xattoki o'zining sharqiy hududlaridagi aholisini Eron ta'sirdan mutloq chiqara olmadi. Ikki tomonlama munosabatlarga umumiy nuqtai nazardan qaraganda, Eron Islom Respublikasi Saudiya Arabistonining AQSH va Isroil bilan munosabatlaridan xavotirda. Eron Saudiya Arabistonini mintaq va musulmon davlatlarga hiyonat qilishda ayblaydi va AQSH va Isroil bilan bog'liq har qanday aloqalarini qattiq tanqid qilib keladi.

Ehtimol, Saudiya Arabistoni tomonidan Eron bilan yaqinlashish O'sha paytda Arabiston AQShdan tashqi siyosiy mustaqillikni belgilash istagi bilan bog'liq edi. Shunga qaramay, Arab davlatlari bilan munosabatlar muammolari, masalan, EIR va BAA o'rtasidagi Abu-Musa orollari, Fors ko'rfazidagi katta va kichik Tomb orollari uchun hududiy nizo bo'lib qoldi, keyinchalik bu muammo Eronning Hormuz bo'g'ozini to'sib qo'yishi va orollardan shu maqsadda foydalanishi bilan bog'liq holda yana paydo bo'ldi

1980 yil Shu yili boshlangan Eron-Iroq urushida (1980-1988 yy) Saddam Xusayn davlatini qo'llab-quvvatlagan saudiyachilar Bahrayn, Qatar va Birlashgan Arab Amirliklarini ham xuddi shunday qilishga da'vat qilgan. Saudiya Arabistonida Erondagi inqilob regiondagi tinchlikka tahdid solishi mumkin, degan hadiksirash paydo bo'lgan edi.

1987 yil Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar uzilish darajasiga kelib qolgan edi. Eronliklarning Amerika va Isroilga qarshi Makkadagi namoyishlari Qirollik hukumati tomonidan

bostirildi. Natijada, 402 nafar ziyoratchi halok bo'ldi. Ularning 275 nafari Eron fuqarolari edi. G'azabga kelgan namoyish ishtirokchilari Tehrondagi Saudiya Arabistoni elchixonasini qo'lga oldilar va Quvayt elchixonasiga o't qo'ydilar. Saudiyalik diplomatlardan biri olgan jarohatlari natijasida voqea joyida hayotdan ko'z yumdi.

1990-2000 yillar. 2000-yillar boshlariga qadar ikki mamlakat munosabatlarida "diplomatik hotirjamlik" kuzatildi. Ammo 2007-yilning yanvar oyida Saudiya Arabistoni hukumati Eron emissariga uning davlati Fors qo'ltig'ini hatarga yo'liqtirayotganini aytdi. Ar-Riyod Iroq va Tehron yadro dasturi tufayli Eron va AQSh o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni nazarda tutgan edi. Saddam Husaynni taxtdan ag'darish uchun AQSh tomonidan 2003-yilda boshlangan Iroq urushi Bag'dod hukumati tepasiga shialar kelishiga sabab bo'ldi. Ar-Riyod Tehron yadro dasturidan bezovta bo'layotgandi. U Eron Fors qo'ltig'ida siyosiy yakkahokimlik o'rnatishi mumkinligidan xavfsirardi".

2011 yil, mart. Saudiya Arabistoni demokratik talablar bilan chiqqan norozilik namoyishlarini bostirish uchun Bahraynga o'z qo'shinini yubordi. Saudiyachilar shialardan tashkil topgan oppozitsiya vakillari Eronga tenglashishni xohlab qolishidan havotirda edi. Manama va Ar-Riyod rahbarlari paytdan foydalanib Tehronni Bahrayn politsiyasiga qarshi zo'ravonlik uyushtirishda ayblashni unutmadilar.

2012 yil, iyul Saudiya Arabistonining sharqiy provinsiyasida yashovchi shayx Nimr an-Nimr va bir guruh shia musulmonlari mamlakatda janjal chiqarish maqsadida chet el davlatlari, jumladan, Eron bilan hamkorlik qilayotganlikda ayblanishdi. Natijada, shayx hibsga olindi. Ushbu hodisa ro'y berishidan uch yil oldin shayx an-Nimr Qirollikning sharqiy qismini alohida ajralib chiqib, aholisi ko'pchiligi shia musulmonlaridan tashkil topgan Bahraynga qo'shilishga da'vat qilgan.

2012 yilda oltinchi muhim voqea ro'y bergan edi: Saudiya Arabistoni Bashar Asad tuzumiga qarshi chiqqan suriyalik qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlashga qaror qildi. Bunda Eron Bashar Asad tomonida ekanligi hech kimga sir emasdi. Ar-Riyod Suriya prezidentini genotsidda, Tehronni esa okkupatsiyada aybladi. Eron bunga javoban Saudiya Arabistonini terrorchilar sherigi deb atadi.

Va nihoyat, 2015 yilda Saudiya Arabistoni arab davlatlari koalitsiyasiga boshchilik qildi va Eron ittifoqdoshi bo'lgan xusitlarga mamlakat hukumatini qo'lga olishlariga yo'l qo'ymaslik uchun Yamanda havo zarbalarini amalga oshirdi. Ar-Riyod bu mojaroda Tehron aybdorligini, u mamlakatda to'ntarishni amalga oshirish uchun qo'shinlarni tayyorlab berayotgani haqida oshkor qildi. Eron esa o'z navbatida koalitsiya zarbalari mahalliy aholini nishonga olganini ta'kidladi.

“Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasidagi munosabatlar Tehron boshqa mamlakatlar, shu jumladan bizning qirolligimiz ichki ishlariga aralashishni to‘xtatgan taqdirdagina qayta tiklanishi mumkin”, — deydi Saudiya Arabistonining BMTdagi doimiy vakili Abdulla Al-Muallimiy.

2016 yil 2 yanvar kuni Saudiya Arabistoni Ichki ishlar vazirligi 47 kishi shu jumladan taniqli shia targ‘ibotchisi Nimr an-Nimrning qatl etildi. Iroq, Livan va Yamanning shiya musulmon jamoalari Saudiya Arabistonida Nimr an-Nimrning qatl qilinishidan norozilik bildirishdi. imom an-Nimr 2012-yil 8-iyulda ommaviy norozilik namoyishlari va betartibliklarga undash ayblovi bilan hisbga olingan va 2014-yil oktabrida o‘lim jazosiga mahkum qilingan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytilish mumkinki, Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasida kechayotgan mintaqadagi raqobat natijasida u yerda etnik va mazhablararo ziddiyatlar ortib bormoqda. 1979-yilning noyabr oyida muqaddas shahar Makkadagi *Masjid ul-Harom* Juhayman al-Utaybiy boshchiligidagi qurolli guruhlar tomonidan egallab olindi va bu harakat Mahdiylik harakati deb e‘lon qilindi. Saudiya Arabistoni bu qurolli bosqin ortida Eronning qo‘li borligini iddo qilsada, bu o‘z isbotini topmadi. Bugun mintaqa istiqboli uchun ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning qayta tiklanishi u yerdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ikki davlat aloqalar Xitoy aralashuvi natijasida 2023-yilda ijobiy tomonga siljish qildi. Xitoy vositachiligida Eron va Saudiya Arabistoni diplomatik aloqalarni qayta yo‘lga qo‘yishga hamda elchixonalarni qaytada ochishga kelishib oldi. Bu aloqalar qanchalik uzoq davom etishi haqida aniq fikr bildirish hozircha mushkil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cooper, A. S. (2012). *The oil kings: how the US, Iran, and Saudi Arabia changed the balance of power in the Middle East*. Simon and Schuster.
2. Chubin, S., & Tripp, C. (2014). *Iran-Saudi Arabia relations and regional order*. Routledge.
3. Ravshanov, F. R., & Azimov, H. Y. (2021). Danger and Security: History and Present. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(4), 280-285.
4. Ahmadian, H. (2018). Iran and Saudi Arabia in the age of Trump. *survival*, 60(2), 133-150.
5. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (4 (6)), 92-97.
6. Amiri, R. E., & Samsu, K. H. K. (2011). Security Cooperation of Iran and Saudi Arabia. *International Journal of Business and Social Science*, 2(16).

7. Azimov, H. Y. (2021). Emergence Of New Threats To Turkey's National Security During The Syrian Crisis: "Euphrates Shield" Movement. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(01), 42-48.

8. Mabon, S. (2015). *Saudi Arabia and Iran: power and rivalry in the Middle East*. Bloomsbury Publishing.

9. Abidova, Z. K. (2020). Sanctification of Water among the Population of the Khorezm Oasis. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 12(4).

10. Kadirberganovna, A. Z. (2023). MYTHS AND LEGENDS ABOUT THE SAINTS OF KHOREZM. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9(2), 50-52.

11. Abidova, Z. (2023). WORSHIP OF TREES IN CULTURAL PRACTICE OF THE UZBEKS OF THE KHOREZM OASIS. *EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO)*, 10(3), 10-12.

12. Guzal, R., & Zaynab, A. (2021). The role of Avesta in the formation of a healthy lifestyle in the Khorezm oasis. *EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO)*, 8(1), 8-10.

13. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. *European Researcher. Series A*, (8-2), 48-57.

14. Sayfullaev, D. (2016). Parliamentary Diplomacy In Making Of Foreign Policy. *The Advance Science Journal of International Relations*, 1(1), 52-54.